МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

# “MILLIY QADRIYATLARIMIZ ASROVCHISI”.

**Umidjon Sadullayev Shokir o'gli**
Osiyo Xalqaro Universiteti,
Tarix va filologiya kafedrasi o'qituvchi
umid.2701.1998@gmail.com

**Annotatsiya:** Milliy hunarmandchiligimiz ildizlari qadim davrlarga borib taqalib, unda ko’p yillik an’ana va qadriyatlar aks etgan. Milliy hunarmandchiligiz namunalarida aholi dunyoqarashi va milliy tafakkurining nechog’lik teran ekanligi aks etadi. Prezidentimizning 2019 yil 28 noyabrdagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida yurtimizda yoshlar, ayollar hamda aholining kam ta'minlangan qismini milliy hunarmandchilikka keng jalb qilish va shu orqali ularning ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

**Kalit so’zlar:** milliy hunarmandchilik, kulolchilik, xushtak, hunarmand, terrakot, xalq amaliy san’ati.

Bugungi kunda O‘zbekiston xalqlarining boy madaniy merosi va tarixiy an’analarini to‘liq saqlab qolish va ko‘paytirishga juda katta e’tibor berilmoqda. Bu jarayonda milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san’atini yanada rivojlantirish, hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fuqarolarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maqsadli va kompleks chora- tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Jahonda globallashuv jarayoni kechayotgan bir sharoitda har bir davlat nafaqat tabiiy va iqtisodiy, balki inson omili, jumladan, yosh avlodni tarbiyalash, shart-sharoitlar yaratish, ularning intellektual salohiyatidan samarali foydalanish usullarini takomillashtirib bormoqda.[1]

Qadimdan yurtimiz hududida hunarmandchilik an’analari, xalq amaliy san’ati yuksak darajada rivojlanib kelgan. Xususan qadimiy Buxoro vohasi ham hunarmandchilik

an'analari yuksak dararajada qadrlanib kelingan go'shalardan hisoblanadi. Har bir xalqning qadriyatlari bebahodir. Mana shunday qadimiy an'analarni o'zida aks ettirgan hunarmandchilik turi bu hushtak yashash san'atidir. Bu san'atning tarixi mingyillarga borib taqaladi. Ushbu qadimiy san'atni rivojlantirib kelgan usta-kulol Boboyeva Kubaro aya edi.

Hushtak-islomgacha bo'lgan zardushtiylikdan kelib chiqqan bo'lib, gildan yasalgan. Ular xayoliy hayvonlar shaklida yasaladi. Masalan, Ajdarho – suv elementi bilan bog'liq. Har yili bahorgi tengkunlik, Navzo'z bayrami munosabati bilan hushtak chalinib, bahorgi yomg'ir uchun bolalarga tarqatilgan. 1960-yilgi Samarqandda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar olimlarni hayratda qoldirdi. Arxeologik izlanishlar natijasida topilgan yoshi ming yilga teng hushtaklar zamonaviylari bilan solishtirilganda hech qanday farq yo'q edi. Bu o'yinchoqlarda yana bir ma'no bor, u ham bolalar bilan bog'liq. Qadimda bolalar juda ko'p o'pka va bronxlar bilan bog'liq kasallliklarga chalinishgan. Bu afsonaviy o'yinchoqlar o'pkani tozalaydigan va butun boshli qon aylanish tizimini yaxshilaydigan qadimiy nafas olish mashqlari edi. Bu xalqimiz dahosidan dalolat.[2] Milliy qadriyatlarimiz asrovchisi bo'lgan Kubaro Boboyeva butun umri davomida minglab otlar va qo'zilarni haykaltaroshlik usulida yasab kelgan. Kubaro aya loydan o'yinchoq yasash sirlarini onalari Hamrobibidan o'rganganlar.

Ayaning sopoldan yasalgan o'yinchoqlari o'ziga xosigi bilan Zarafshon vodiysida olib borilgan arxeologik qazishmalar paytida topilgan terrakotalar, ot, fil, qo'y, it haykalchalariga o'xshash ramziy ma'noga ega edi. Hushtaklar loydan echki juni qo'shilgan holda tayyorlanadi va oddiy oq, ko'k, yashil nuqta va zarbalar bilan bo'yalgan.

Boboyeva Kubaro Mirfayziyevna 1938 yil 22 martda Vobkent tumanida O'ba qishlog'ida tug'ilgan. 1955 yilda o'rta umumta'lim maktabini bitirgan. U yoshlik yillarida hushtak yasashni qunt bilan o'rgandi. 1978-yildan buyon kulolchilik bilan

shug'ulla boshlagan. Kubaro aya O'zbekiston Rassomlar ijodiy uyushmasi a'zosi sifatida loydan yasalgan o'yinchoqlar an'analari asrab-avaylash, hunarmandchilik sirlarini yosh avlodga yetkazib keldilar. Hunarmandning izdoshlari orasida uning farzandlari va nevaralari ham bor. Oltin merosimiz bo'lgan hunarmandchiligimizni avloddan avlodga to'laqonligicha yetkazish maqsadida 100 dan ortiq shogirdlar tayyorladi. Qadimiy hunarmandchilik turli sir-asrorlarini yoshlarga yetkazish maqsadida, 2002 yilda Vobkentdagi ishsiz yoshlar uchun hunarmandchilik markazini tashkil etadi. Boboyeva Kubaro doimiy o'tkaziladigan ko'rgazmalarga va ko'rik tanlovlarida qatnashib, diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanib kelingan. Usta hunarmand nafaqat Respublikadagi ko'rgazmalarda balki chet mamlakatlarda o'tkaziladigan ko'rgazmalarda bir necha marotaba qatnashgan. Qadimiy kulolchilik san'ati sirlarini qayta tiklashga katta hissa qo'shgan ustalardan K.Boboyeva mamlakatimizda o'zidan boy, rang barang ijodiy meros qoldirdi. K.Boboyeva Respublika va xorijda o'zining betakror, alohida mazmun va mohiyatga ega turli kulolchilik ishlari bilan tanilgan kulollardan biri edi. 50 ga yaqin respublika, xalqaro ko'rgazma va tanlovlarda qatnashgan, jumladan, Sankt-Peterburg (1984), Vilnyus (1986), Belorussiya (1988), Germaniya va Fransiya (2002) da diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlangan. Respublika «Hunarmand» uyushmasi a'zosi, usta kulol «Mehnat shuhrati» ordeni , "Shuhrat"(2002) medali sohibi Kubaro Boboyeva 85 yoshda olamdan o'tdi.[3]

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1.Norova. O. Milliy hunarmandchilik an'analari va yosh avlod tarbiyasi."Buxoro nashr", 2023.-B-8.

2. Фантастическая сказка из Убы - Новости Узбекистана сегодня: nuz.uz https://nuz.uz/moi-uzbekistancy/47346-fantasticheskaya-skazka-iz-uby.html

3."Hunarmand" uyushnasining Buxoro viloyati boshqarmasi ma'lumotlaridan foydalanildi.2023-yil,4-avgust.

4. Buxoro hunarmandchiligi dunyo nigohida - buxdu.Uz https://buxdu.uz/ru/novosti/704/buxoro-hunarmandchiligi-dunyo-nigohida/

Sadullayev , U. . (2024). MAHALLA: UNDERSTANDING THE CONCEPT. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, *2*(4), 376–385.

Sadullaev , U. . (2024). USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN EDUCATION. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, *2*(5), 344–352.

Sadullaev, U. (2024). EDUCATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A NEW ERA OF OPPORTUNITY. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, *2*(6), 238–241.

Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *4*(3), 276-280.

Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *4*(3), 276-280.

Shokir o'g'li, S. U. (2024). The Development of Culture and Art during the Timurid Era: the Development of Architecture and its Characteristics. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *4*(9), 133-138.

Shokir o'g'li, S. U. (2024). The Development of Culture and Art during the Timurid Era: the Development of Architecture and its Characteristics. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *4*(9), 133-138.

Sadullayev, U. (2024). EDWARD ALLWORTH AND THE STUDY OF MODERN UZBEKS. *Modern Science and Research*, *3*(2), 303-308.

Shokir o'g'li, S. U. (2024). MODERN SCIENCE AND RESEARCH. *MODERN SCIENCE*, *2181*, 3906.

Sadullayev, U. (2024). ETHNOGENESIS AND ETHNIC HISTORY OF THE UZBEK PEOPLE. *Modern Science and Research*, *3*(2), 355-361.

Shokir o'g'li, S. U. (2024). MODERN SCIENCE AND RESEARCH. *MODERN SCIENCE*, *2181*, 3906.

Sadullayev, U. (2024). THE CONCEPT OF JADIDISM AND ITS ESSENCE. *Modern Science and Research*, *3*(2), 631-636.

Sadullayev , U. (2024). MIRZA SIROJ HAKIM AND HIS LEGACY. *Modern Science and Research*, *3*(2), 902–910.

Sadullayev, U. . (2024). THE NEIGHBORHOOD IS THE CRADLE OF VALUES. *Modern Science and Research*, *3*(1), 607–613.

Shokir o'g'li, S. U. (2023). The History of the Creation and Formation of the Neighborhood. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, *1*(10), 480-485.

Sadullayev Umidjon Shokir O'g'li, . (2023). THE IMPORTANCE OF THE MAHALLA SYSTEM'S REFORMATIONS IN NEW UZBEKISTAN. *International Journal Of History And Political Sciences*, *3*(10), 25–30.

Shokir o'gli, S. U. (2023). The Essence of State Policy on Youth in New Uzbekistan. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, *1*(9), 554-559.

Sadullayev , U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN RAISING A SPIRITUALLY MATURE GENERATION. *Modern Science and Research*, *2*(10), 488–493.

Sadullayev, U. (2023). ABOUT THE EMERGENCE OF THE CONCEPT OF NEIGHBORHOOD. *Modern Science and Research*, *2*(12), 722–727.

Sadullayev Umidjon Shokir O'gli, . (2023). ELUCIDATION OF ISSUES OF THE HISTORY OF BUKHARA GUZARS IN O. A. SUKHAREVA AND HER

STUDIES. *International Journal Of History And Political Sciences*, *3*(11), 30–35. https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue11-07

Sadullayev, U. (2023). O'zbekistonda xotin-qizlarga berilayotgan e'tibor: mahalla boshqaruvida xotin-qizlarning roli. In *Oriental Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 551-556). OOO «SupportScience».

Shokir o'gli, U. S. (2023). MILLIY QADRIYATLARIMIZ ASROVCHISI. *Journal of new century innovations*, *35*(1), 79-80.

Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Modern Science and Research*, *2*(10), 755–757.

Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF WOMEN IN NEIGHBORHOOD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, *2*(9), 132-135.